ISSN: 2835-3730 Website: econferenceseries.com

# SOLIQ QARZDORLIGINI KAMAYTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI

Babamuratov Jaxongir Rustamovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti , Mustaqil izlanuvchi

**Annotatsiya:**
Respublikamizning soliq qonunchiligi bosqichlarini takomillashtirish bosqichlari, soliq qarzdorligini undirishga oid huquqiy asoslari bo‘yicha xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** soliq, budjet siyosati, soliq ma’murchiligi, soliq hisoboti, soliq tushumlari, davlat organlari, soliq qarzi, bankrotlik, soxta bankrotlik.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan soliq sohasidagi tub islohotlar, soliq qonunchiligidagi o‘zgarishlar, shuningdek soliq ma’muriyatchiligini yanada takomillashtirish yo‘lida bir qancha ishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, soliq to‘lovchilarning qonun bilan belgilab qo‘yilgan majburiyatlarini, ya’ni soliq qonunchiligiga muvofiq hisoblangan soliq va boshqa majburiy to‘lovlarni o‘z vaqtida hamda to‘liq to‘lashlarini nazorat qilish mexanizmlari ham takomillashmoqda.

O’zbekistonda soliq qarzini hosil bo’lishdagi muammo va kamchiliklarni amaldagi holat va chet yel tajribacini o’rganib, tadqiqot jarayonida shunday xulosa qilindiki, soliq qarzi ulushi asosan respublikadagi soliq yuki iqtisodiyotning tarmoqlari va cub’ektlari o’rtasida teng taqsimlanmaganligi, soliqqa tortishning adolat prinsiplariga tayangan holda tadbirkorlikning barcha turlarini teng va to’liq hajmda soliqqa jalb yetilishini ta’minlash, fikrimizcha soliq to’lovchilar soliq to’lovlarini o’z vaqtida va to’liq hajmda amalga oshirgani holda qarzdorlikning paydo bo’lishini bartaraf yetadi.

Soliq yuki yuqori bo’lsa tadbirkorlik sub’ektlari faoliyatiga salbiy ta’sir yetib, uning investitsiya faoliyatini cheklab qo’yadi, ushbu holatda korxona faoliyatini to’xtatishi yoki xufyona iqtisodiyotga o’tib ketishiga sabab bo’ldai. Ikkala holatda ham davlat bundan zarar ko’radi, mamlakat bo’yicha ishlab chiqarishning pasayishiga, oxir oqibatda yalpi ichki mahsulotning qisqarishi, soliqlar orqali kelib tushadigan daromad manbaining torayishiga olib keladi.

Shu o’rinda, soliq to’lovchining hisobvaraqlarida pul mablag‘lari bo’lmagan yoki ular soliqlarni o’tkazish to’lov topshiriqnomasini yoki tegishli vakolatli organning ularni tegishli byudjetga yoki davlat maqsadli jamg‘armasiga undirish to’g‘risidagi

E- Conference Series
Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings

inkasso topshiriqnomasini bajarish uchun yetarli bo'lmagan taqdirda, bunday topshiriqnomalar mazkur hisobvaraqlarga pul mablag'lari kelib tushishiga qarab, har bir shunday kelib tushishdan keyingi operatsiya kunidan kechiktirmay qonun hujjatlarida belgilangan navbat tartibida bajarilmagan bo'lib, bankning aybi bilan soliq to'lovchining soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar cummacini o'tkazish topshiriqnomaci, tegishli vakolatli organning ularni undirish to'g'ricidagi inkasso topshiriqnomasi bajarilmagan (bajarilishi kechiktirilgan) taqdirda, banklar mas'uliyatini yanada kushaytirish zarur.

Shu bilan birga, soliq to'lovchilarning soliq qonunchiligida belgilangan majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajarishlari hamda soliq organlarining soliq ma'murchiligini, shuningdek to'lov intizomini mustahkamlashga doir vazifalarini maqbullashtirish maqsadida, birinchidan yuridik shaxslar soliq hisobotlarini qabul qilinganligini xizmat ko'rsatuvchi tijorat banklarining soliq to'lovchi tomonidan hisoblangan soliqlar bo'yicha to'lov topshiriqnomasi taqdim yetilganligi xabarnomasi asosida qabul qilingan deb hisoblash, ikkinchidan bosqichma-bosqich soliq to'lovchilarning soliq hisobotlarini soliq organlarida mavjud ichki va tashqi ma'lumotlari asosida tayyorlash tizimini joriy yetish ijobiy natijaga beradi.

Chet mamlakatlarda soliq islohotlarining asosiy yo'nalishlarini tahlil qilish soliq ma'muriyatining hamkorlik modelini yaratish bosqichlarini va yelementlarini aniqlash imkonini berdi.

**Amaliy jihatdan soliq qarzi hosil bo'lishining quyidagi yo'llarini asoslashimiz mumkin. Ya'ni**,

- soliqni to'lashdan bosh tortish;
- korxonalar tomonidan mahsulot (ish, xizmat) uchun mablag'ning o'z vaqtida to'lanmasligi;
- davlat buyurtmaci bo'yicha ish bajaradigan yo'nalishdagi korxonalarga davlat tomonidan to'lovlarning o'z vaqtida amalga oshirilmacligi;
- mahculotlarni realizatsiya qilishdagi muammolar natijacida korxonalar moliyaviy holatining turli ob'ektiv va sub'ektiv sabablarga ko'ra og'irlashuvi, inqirozga uchrashi va boshqalar bo'lishi;

Soliq yukidagi tengsizlikni, shuningdek soliq qarzlarini bartaraf yetish uchun soliqqa tortish borasida barcha tadbirkorlik sub'ektlariga teng imkoniyatlarni yaratilmaganligi;

E- Conference Series
Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings

ISSN: 2835-3730 Website: econferenceseries.com

Soliqqa tortish tizimini hamma uchun bir xillashtirish, o'z navbatida amaldagi soliqlar sonini unifikatsiyalash, soddalashtirish va stavkalarini yanada pasaytirishni taqozo yetadi.

**Yuqoridagilardan kelib chiqib quydagi xulosa va takliflarni berdik.**
Undirish imkoniyati mavjud bo'lmagan to'lovga qobiliyatsiz deb ye'tirof yetilmagan – faoliyat yuritmayotgan yuridik shaxslar yoki yakka tartibdagi tadbirkorlarning soliq qarzini besh yildan keyin soliq organlari qarorlari asosida hisobdan chiqarish, bunda ushbu davrda qarzdorning mol-mulki va boshqa daromadlari aniqlanganda yoki vujudga kelganda soliq organlariga ijro hujjatini qayta tiklash vakolatini berish.

**Adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi- Toshkent: G'afur G'ulom nashriyot uyi 2020.- 640 b.
2. Normurzaev U. Tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlashda soliq imtiyozlarini berish orqali samarali usullardan foydalanish yo'llari //Ekonomika i obrazovanie. – 2021. – №. 3. – S. 91-95.
3. Normurzaev U. K. Amendments and additions to the tax code of the republic of uzbekistan on tax privileges in 2021. – 2021
4. Normurzaev Umid Xolmurzaevich Xukumatimiz tomonidan berilayotgan soliq imtiyozlarining hisobini yuritish va samaradorligini tahlil qilish masalalari // Ekonomika i finansы (Uzbekistan). 2021. №10 (146). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/ukumatimiz-tomonidan-berilayotgan-soli-imtiyozlarining-isobini-yuritish-va-samaradorligini-ta-lil-ilish-masalalari (data obraщeniya: 17.01.2023)
5. Normurzaev U. X. 2021 yildagi soliq ma'murchiligi hamda soliq kodeksiga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar yuzasidan //Internauka. – 2021. – T. 6. – №. 182 chast 2. – S. 99.


E- Conference Series
Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings